

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA SUV YETISHMOVCHILIGI MUAMMOLARI.

Qonaqbaev Niyetbay Dawletmuratovich

Annotatsiya: *Ushbu ilniy maqolada bugungi kunda butun dunyoa global muammoga aylanib borayotgan suv yetishmovchiligi hamda uning Markaziy Osiyoda mintaqasidagi ushbu tizimdagagi mavjud muammolari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Markaziy Osiyo, goesiyosat, jamiyat, suv muammosi, suv tanqisligi, tabiiy resurs, Amudaryo, Sirdaryo.*

Markaziy Osiyo mintaqasi, o'zining geosiyosiy ahamiyati va tarixiy merosi bilan dunyo miqyosida keng tanilgan. Ammo bu mintaqqa, asrlar davomida iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslar yetishmovchiligi va boshqa omillar tufayli, eng muhim ekologik muammolardan biri bo'lgan suv tanqisligi bilan kurashmoqda. Suv resurslari O'rta Osiyo davlatlari uchun nafaqat hayotiy ahamiyatga ega, balki iqtisodiy rivojlanish va xalqaro siyosatning ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Mintaqadagi suv ta'minoti va taqsimotiga oid muammolarni hal etmasdan, barqaror rivojlanish va tinchlikka erishish qiyin bo'ladi. Osiya qit'asining markaziy qismida joylashgan bo'lib, tabiiy resurslarga boy mintaqadir. Bu yerda ikki asosiy suv manbai mavjud: Amudaryo va Sirdaryo. Ushbu daryolar mintaqaning deyarli barcha suv resurslarini ta'minlaydi. O'rta Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston, daryo havzalari atrofida joylashgan bo'lib, bu davlatlar uchun suv ta'minoti va unga bog'liq iqtisodiy faoliyatlar muhim ahamiyatga ega. Amudaryo va Sirdaryo o'z havzalarida minglab yillar davomida qishloq xo'jaligi uchun suv manbai bo'lib xizmat qilgan.

Oddiy ichimlik suvi, umuman, tabiiy suv manbalari va undan foydalanish Markaziy Osiyo davlatlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqadagi eng sersuv daryo - Amudaryoni Tojikiston tog'lari suv bilan ta'minlaydi, uning asosiy irmoqlaridan biri bo'lgan Vaxsh daryosida qurilayotgan va Zarafshon daryosida qurilishi mo'ljallangan GESlar loyihasi yaqin vaqtlargacha mintaqada davlatlari orasida munozaralarga sabab edi. Hozirda esa sharoit tubdan o'zgargan, suv - mintaqada birlik irmog'iga aylangan.

Bundan atigi 4-5 yil muqaddam ichki daryolardan foydalanish, suv ta'minoti masalasi Markaziy Osiyo davlatlararo munosabatlarining sovuqlashishiga ham sabab bo'lgan edi. Qardosh O'zbekistonning yaxshi qo'shnichilik munosabatlari tufayli oradan bu masala umuman ko'tarilib, Toshkent hatto Tojikistondagi Zarafshon daryosida yangi ikki GES qurilishiga yordam berishga tayyorligini e'lon qilgan. Aslida suvdan unumli foydalanish mintaqaning barcha mamlakatlariga xos muammo. Masalan, Tojikiston shimolida Qirg'iziston bilan bu muammo haligacha saqlanib turibdi.

Shu o'rinda O'zbekiston suvdan foydalanish samaradorligini oshirishda katta zaxiralarga ega. Suvning asosiy iste'molchisi qishloq xo'jaligi sohasi bo'lib, unda samarasiz hisoblanadigan an'anaviy «jo'yakli» sug'orish usuli hanuzgacha keng qo'llanadi. Bundan tashqari, ekinlarni sug'orishda foydalilaniladigan suv resurslarining uchdan bir qismidan ko'prog'i tabiiy qoplamlali irrigatsiya tarmoqlarida yo'qotiladi. Shu bois, samarali suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy

etish va irrigatsiya tarmoqlarida suv isrof bo'lishini keskin kamaytirish yaqin kelajakda kutilayotgan suv taqchilligi muammosining yagona yechimidir.

O'zbekistonning yerusti suv resurslari tanqis hududlarida bog'bonlar va sabzavot yetishtiruvchilar plantatsiyalarni sug'orish uchun artezian gorizontlaridan, ya'ni 5-10 metrdan 200 metrgacha bo'lgan chuqurlikdan suv olishadi. Artezian suvlari eng muhim foydali qazilmalar sirasiga kiradi va ushbu «oltin zaxira»dan ortiqcha foydalanish ichimlik suvi taqchilligiga olib kelishi aniq.

Rasmiy manbalarga ko'ra, mamlakatning yetti viloyatida yerosti suvlari sathi pasayishi kuzatilgan: Navoiy, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Farg'ona va Andijon viloyatlarining qator tumanlarida yerosti suvlari sathi 5 metrgacha pasaygan. Natijada, 2023 yilning sentabrida yerosti suvlari sathi pasayib borayotgan 23 tumanda quduqlarni burg'ulashga nisbatan moratoriyl joriy etildi.

Suv masalasida O'zbekistonning transchegaraviy qaramlik darajasi juda yuqori – mamlakat suv resurslarining atigi 20 foizi o'zimizda, qolgan katta qismi esa qo'shni davlatlarda shakllanadi. Mamlakat tashqarisidan kirib keladigan ikki asosiy daryo – Sirdaryo va Amudaryolarni suv bilan ta'minlovchi muzliklar qisqarishi ushbu daryolardagi suv hajmining kamayishiga olib kelmoqda. Zero, so'nggi 50 yil ichida iqlim va antropogen o'zgarishlar tufayli Sirdaryo va Amudaryodagi suv hajmi 20 foizga kamaydi.

O'zbekiston transchegaraviy suv resurslariga yuqori darajada qaramligi bois, u qo'shni mamlakatlarda suvdan foydalanish borasidagi o'zgarishlarga nisbatan zaifdir. Amudaryoda suv hajmi kamayishi fonida qo'shni Afg'onistonda qurilayotgan Qo'shtepa kanali vaziyatni yanada og'irlashtiradi. Kanal qurib bitkazilgach, Amudaryo suvining salmoqli qismi Afg'oniston shimalidagi tumanlarga yo'naltiriladi. So'nggi prognozlarga ko'ra, Amudaryo havzasida O'zbekistondagi suv hajmining umumiy qisqarishi Qo'shtepa kanali va iqlim o'zgarishi hisobiga 2028 yilda 19 foizgacha, 2030 yilda 29 foizgacha yetishi mumkin.

Suv qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning muhim omillaridan biri bo'lib, suv resurslari qisqarishi sharoitida ushbu omil muhim iqtisodiy resursga aylanadi. Suv tejovchi texnologiyalar o'rnatishni rag'batlantirishga qaratilgan keng ko'lamlı davlat qo'llab-quvvatlovi bilan bir qatorda ushbu iqtisodiy resursning narxi ham katta ahamiyatga ega. Ayni paytda sug'orishda foydalaniladigan suv solig'i 1 metr kubi uchun 100 so'm etib belgilangan. Ammo bu mazkur resurs kamayib borayotgani sharoitida undan foydalanish uchun ancha past qiymat.

Ma'lumki, muayyan iqtisodiy resursning arzonligi ishlab chiqaruvchida ushbu resursni tejashta rag'bat uyg'otmaydi. Boshqacha aytganda, ishlab chiqaruvchi uchun arzon resursni tejashtdan ma'no yo'q. Shu bois, suv tejovchi texnologiyalar o'rnatishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirish bilan bir qatorda, sug'orishda foydalaniladigan suvning qiymati (yoki suv solig'i) shunday bo'lishi kerakki, agrobiznes nuqtayi nazaridan uni tejasht uchun to'laqonli asos bo'la olishi kerak.

O'rta Osiyoda suv tanqisligi bir necha omillar tufayli yuzaga kelgan. Asosiy sabablarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Iqlim o'zgarishi: O'rta Osiyo mintaqasi, asosan quruq va yarim quruq iqlim sharoitida joylashgan. Iqlimning o'zgarishi, shu jumladan, haroratning ko'tarilishi, yog'ingarchilikning

kamayishi va evapotranspirasiyaning kuchayishi suv resurslariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa daryolar va yer osti suvlarining kamayishiga olib kelmoqda.

Daryolarning past darajada taqsimlanishi: Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suvning taqsimlanishi murakkab va ko'pincha siyosiy nuqtai nazardan nizolarni keltirib chiqaradi. Suv taqsimoti bo'yicha mayjud bo'lgan bitimlar, ko'plab hollarda, ishlab chiqilmagan yoki amalgalashirilmagan. Buning natijasida, bir davlatning suvni haddan tashqari iste'mol qilishi, boshqa davlatlarda suv tanqisligini kuchaytiradi.

Qishloq xo'jaligi va sug'orish tizimlarining samarali bo'lmasligi: O'rta Osiyo mintaqasidagi qishloq xo'jaligi ko'plab hududlarda yerlarni sug'orish uchun suvga qaram. Sug'orish tizimlarining samaradorligi past, natijada suvning katta qismi yo'qotiladi. Sug'orishning noaniq va isrofgarchilikka yo'l qo'yadigan usullari suv resurslarining isrofgarchiligiga olib keladi.

Suv omborlari va inshootlarining eskirishi: O'rta Osiyo davlatlarida mayjud bo'lgan suv inshootlari, ayniqsa daryo havzalaridagi suv omborlari va kanal tizimlari eskirib, samarali ishlamayapti. Bu inshootlar, katta kapital va texnologiyalarni talab qiladi, ammio ko'plab davlatlar bu sohada yetarli investitsiyalarni amalgalashirilmagan. O'rta Osiyo mintaqasida suvdan noto'g'ri foydalanish, xususan, sanoat ishlab chiqarish va energetika sohalarida, suv resurslarini isrofgarchilik bilan sarflashga olib keladi. Bu, o'z navbatida, mintaqaning ekologik holatini yomonlashtiradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mintaqani asosiy suv bilan ta'minlovchi daryolarning aksariyati, xususan Amudaryo hamda Sirdaryo ham transchegaraviy ahamiyat kasb etadi-ki, undan samarali foydalanishning yagona yo'li o'zaro hamkorlik hamda murosa sanaladi. Shu o'rinda, davlatimiz rahbarining O'zbekiston BMTning preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi konvensiyalar loyihibarini qo'llab-quvvatlashi to'g'risida ta'kidlab o'tgani alohida e'tiborga molikdir. Biroq, mintaqqa mamlakatlarining aksariyat hollarda, faqat bir tomonning manfaatlariga asoslangan holda suv resurslaridan foydalanishi, hattoki undan geosiyosiy bosim quroli sifatida foydalanib kelganligi ham sir emas.

Ahamiyatga molik boshqa bir jihat shundaki, nafaqat Markaziy Osiyoning besh mamlakatidan balki Afg'oniston hududidan oqib o'tuvchi Amudaryo suv resurslariga egalik qilishdagi muammolar bir karra ko'paydi. Negaki, 2022- yil 31- martida Tolibon hukumati mamlakat shimalida ulkan "Qo'shtepa" kanali qurish taqdimotini o'tkazgan hamda hozirgi kunda uning qurilishi jadal sur'atlar bilan davom etmoqda. Ma'lumot o'rnida, kanal uzunligi 285 kilometrni tashkil etadi. Loyiha qiymati 684 million dollarga baholangan. Kanalning kengligi yuz metr, chuqurligi 8,5 metr. 2022- yil mart oyidan boshlab 4 ming nafargacha kishi ishtirokida faol qurilish ishlari olib borilmoqda. Qo'shtepa kanali unchalik kichik emaski, u allaqachon kosmosdan aniq ko'rinish turibdi. Kanal Amudaryodan 10 kub kilometr suv olish maqsadida qurilmoqda. Transchegaraviy daryodan suvning yarim miqdori yangi kanalga olinganda ham, bu quyi oqimdag'i mamlakatlar uchun sezilarli ta'sir o'tkazadi. Tashvishlanarli, agarda loyiha amalga oshiriladigan bo'lsa, Amudaryo suvinining deyarli uchdan bir qismi Afg'onistonga oqishi hamda O'zbekistonning Xorazm, Navoiy, Buxoro va Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida suv taqchilligini keltirib chiqarishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mavjud chuchuk suvlarning katta qismi qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalaniladi. Markaziy Osiyo mamlakatlari deyarli barchasining hali- hanuz asosiy daromad manbayi esa aynan u bilan bog'liq sanaladi.

Biroq, suvdan foydalanishda isrofgarchilik holatlari, zamonaviy texnologiyalarni tadbiq etish o'rniga haligacha eski uslublardan foydalanish kabi vaziyatlar ham uchramoqda. Mayjud vaziyatning oldini olish uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasidan bevosita foydalanish, sug'orishning yangicha innovatsion usullarini tadbiq etish mintqa har bir mamlakati oldida turgan dolzarb masalalardan sanaladi. Umuman olganda, har bir inson ona tabiatni asrab avaylashi, u bilan ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishi, suv resurslarini tejab foydalanmoqligi kerak. Davlatlar ham o'zaro kelishgan holda murosa bilan boshqa mamlakat manfaatlarini ham inobatga olgan holda siyosat yuritmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Water Resources and Conflict in Central Asia"
2. "Central Asia: Water Crisis and Economic Development" by Shahram Akbarzadeh
3. "Climate Change and Water Resources in Central Asia"
4. Erdonov, M. (2022). Markaziy Osiyo mamlakatlarida transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish: muammo va yechimlar. Ekonomika i sotsium, 74.
5. M.N., E. (2022). MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH: MUAMMO VA YECHIMLAR. Экономика и социум, 75
6. Erdonov, M. N., & Mustayev, Q. R. (2022). Markaziy Osiyo mamlakatlarida transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish: muammo va yechimlar. Экономика и социум, 74.